

# “Mastercard Kapitalbank” aksiyasini o‘tkazish to‘g‘risida ommaviy oferta

Toshkent sh.

2025 yil 19 dekabr

“Kapitalbank” ATB (keyingi o‘rinlarda – Bank), Ustav asosida ish yurituvchi Boshqaruv Raisi K.L. Maevskiy timsolida ushbu hujjat bilan 18 yoshga to‘lgan hamda Bank tomonidan chiqarilgan “Mastercard Black Edition” yoki “Mastercard World Elite” bank kartalariga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan barcha jismoniy shaxslarga (keyingi o‘rinlarda – Ishtirokchilar) ushbu ommaviy ofertada bayon etilgan shartlar asosida shartnoma tuzishni taklif etadi. Mazkur taklif O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367, 370, 981–982-moddalariga muvofiq amalga oshiriladi hamda yuqorida ko‘rsatilgan mezonlarga javob beruvchi cheklanmagan shaxslar doirasiga qaratilgan ommaviy oferta, shuningdek mukofotni ommaviy va‘da qilish hisoblanadi.

## I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu Ommaviy oferta (keyingi o‘rinlarda – “Oferta”) Bank tomonidan o‘tkaziladigan “Mastercard Kapitalbank” promo-aksiyasini (keyingi o‘rinlarda – Aksiya) o‘tkazish shartlarini belgilaydi.

1.2. Bank Aksiyaning yagona tashkilotchisi hisoblanadi va uni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq o‘tkazish uchun to‘liq javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi.

1.2.1. Aksiyaning operatsion ijrochisi “FCBARTGROUP” MChJ (keyingi o‘rinlarda – “Ijrochi”) hisoblanadi. Ijrochi Bank nomidan, uning topshirig‘i va nazorati ostida Aksiyani texnik va operatsion jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi (jumladan, ammo ular bilan cheklanmagan holda: ma‘lumotlarni yig‘ish, tranzaksiyalar ro‘yxatini yuritish, o‘yin (qur‘a) o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish, g‘oliblarni xabardor qilish va boshqalar).

1.2.2. Ijrochi Ofertada nazarda tutilgan harakatlarni belgilangan muddatda bajargan va belgilangan tartibda g‘olib deb topilgan har qanday Ishtirokchiga va‘da qilingan mukofotni (sovrinni) to‘lash majburiyatini oladi.

1.2.3. Ijrochi jalb etilishiga qaramay, Bank Aksiyaning yagona Tashkilotchisi sifatidagi maqomini saqlab qoladi va Ishtirokchilar oldida Aksiya shartlariga rioya etilishi uchun yuridik javobgarlikni o‘z zimmasida qoldiradi.

1.3. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi hududida, faqat “Kapitalbank” ATB bank tizimi Ishtirokchilari uchun o‘tkaziladi.

1.4. Aksiyaning umumiy o‘tkazilish muddati: 2025-yil 19-dekabr soat 00:00 dan 2026-yil 15-yanvar soat 23:59 gacha (Toshkent vaqti, UTC+5).

1.5. Aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi ushbu shartlar bilan to‘liq tanishganini va ularni hech qanday e‘tirozlarisiz qabul qilganini tasdiqlaydi. Ofertani aksept qilish orqali Ishtirokchi o‘z harakatlarini ixtiyoriy ravishda, majburlashsiz, adashish, aldov, zo‘ravonlik yoki tahdid ta‘siridagi amalga oshirayotganini tasdiqlaydi.

1.6. Bank quyidagi huquqlarga ega:

- Ishtirokchilarni Bankning rasmiy sayti yoki boshqa aloqa kanallari orqali xabardor qilgan holda, Aksiyaning sovrinlar jamg‘armasini to‘ldirish va/yoki har bir bosqichda nazarda tutilgan sovrinlar ro‘yxatini o‘zgartirish;
- tegishli xabarnomalarni Bankning [www.kapitalbank.uz](http://www.kapitalbank.uz) saytida o‘zgarishlar kuchga kirishidan kamida 3 (uch) ish kuni oldin e‘lon qilish orqali ushbu Ommaviy ofertaga bir tomonlama tartibda o‘zgartirishlar kiritish.

1.7. Bank va Aksiya Ishtirokchilari o‘rtasida yuzaga keladigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar muzokaralar yo‘li bilan hal etiladi. Kelishuvga erishish imkoni bo‘lmagan taqdirda, nizo O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Bank joylashgan joydagi iqtisodiy sudga ko‘rib chiqiladi.

## II. AKSIYA ISHTIROKCHILARI

2.1. Bir vaqtning o‘zida quyidagi barcha mezonlarga javob beradigan jismoniy shaxslar Aksiyada ishtirok etishga qo‘yiladi:

- “Kapitalbank” ATB tomonidan emissiya qilingan amaldagi “Mastercard Black Edition” yoki “Mastercard World Elite” kartalarining egalari bo‘lish;
- Aksiya o‘tkazilayotgan paytda 18 (o‘n sakkiz) yoshga to‘lgan bo‘lish;
- O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari bo‘lishi;
- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq to‘liq muomala layoqatiga ega bo‘lishi.

2.2. Aksiyada ishtirok etish fakti Ishtirokchining ushbu Ofertaning barcha qoidalariga to‘liq va so‘zsiz roziligini anglatadi. Ofertaning shartlariga rozi bo‘lmagan yoki 2.1-bandda ko‘rsatilgan talablarga javob bermaydigan shaxslar Aksiyada ishtirok etish va sovrinlarni olish huquqiga ega emaslar.

2.2.1. Quyidagi shaxslar Aksiyada ishtirok eta olmaydi:

- Bank xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari;
- Aksiyani tashkil etish va o‘tkazishga bevosita jalb etilgan shaxslar;
- O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lmagan shaxslar.

- 2.3. Bank ushbu Ofertaning 2.1-bandida ko'rsatilgan talablarga javob bermaydigan, shuningdek ushbu Ofertaning boshqa qoidalarini buzgan shaxslarni Aksiya Ishtirokchilari va/yoki g'oliblari safidan chiqarish huquqiga ega.
- 2.4. Ishtirokchi ushbu Ofertaning istalgan qoidalarini buzgan taqdirda, bunday Ishtirokchi Aksiyada keyingi ishtirok etish va sovrin olish huquqini avtomatik ravishda yo'qotadi. Ishtirokchini Aksiyada qayta tiklashga yo'l qo'yilmaydi.
- 2.5. Sovrinni olish uchun Ishtirokchi Bank tomonidan talab qilinadigan hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etishi, shuningdek sovrinni olish bilan bog'liq barcha zarur hujjatlarni imzolashi shart.
- 2.6. Ishtirokchi ushbu Ofertaning 7-bo'limida ko'rsatilgan aloqa ma'lumotlari orqali Bankka tegishli xabarnoma yuborish yo'li bilan Aksiyada ishtirok etishdan voz kechish huquqiga ega.

### **III. AKSIYADA ISHTIROK ETISH SHARTLARI**

- 3.1. Aksiyada ishtirok etish uchun ushbu Ofertaning 2-bo'limida ko'rsatilgan mezonlarga javob beradigan jismoniy shaxs Aksiyaning tegishli bosqichi o'tkazilayotgan davrda kamida bitta malakaviy tranzaksiyani amalga oshirishi lozim.
- 3.2. Malakaviy tranzaksiya – bu “Kapitalbank” ATB tomonidan emissiya qilingan “Mastercard Black Edition” yoki “Mastercard World Elite” kartasidan foydalangan holda bir savdo nuqtasida tovarlar, ishlar yoki xizmatlar uchun kamida 10 (o'n) AQSh dollari yoki 100 000 (bir yuz ming) so'm (yoki ekvivalenti) miqdorida amalga oshirilgan bir martalik to'lovdir. Ishtirok etish shartini bajarish uchun kamida 3 ta (uch) shunday to'lov amalga oshirilishi zarur.
- 3.2.1. Quyidagi operatsiyalar malakaviy tranzaksiyalar sifatida hisobga olinmaydi:
- naqd pul yechib olish operatsiyalari;
  - kartadan kartaga o'tkazmalar (P2P o'tkazmalar);
  - elektron hamyonlarga o'tkazmalar;
  - depozit hisobvaraqlarini to'ldirish bilan bog'liq operatsiyalar;
  - bekor qilingan yoki qaytarilgan operatsiyalar.
- 3.2.2. G'alaba qozonish imkoniyatlarini sun'iy ravishda oshirish maqsadida firibgarlik yoki boshqa insofsiz harakatlar alomatlari aniqlangan Ishtirokchilar Aksiya Ishtirokchilari safidan chiqariladi.
- 3.2.3. Bank malakaviy tranzaksiyalarning qonuniyligini tekshirish hamda ularning haqiqiyliги yoki qonuniyligiga shubha tug'diradigan har qanday tranzaksiyalarni Aksiyada ishtirok etishdan chiqarish huquqini o'zida saqlab qoladi.
- 3.3. Malakaviy tranzaksiya amalga oshirilgandan so'ng jismoniy shaxs avtomatik ravishda Aksiya Ishtirokchisiga aylanadi. Aksiyada ishtirok etish uchun qo'shimcha ro'yxatdan o'tish talab etilmaydi.
- 3.4. Har bir amalga oshirilgan malakaviy tranzaksiya sovrinlar o'ynalishida alohida g'alaba imkoniyati sifatida hisobga olinadi. Bitta Ishtirokchi tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan malakaviy tranzaksiyalar soni cheklanmagan.
- 3.5. Malakaviy tranzaksiyalar soni cheklanmagan bo'lishiga qaramay, Aksiya doirasida bitta Ishtirokchi har bir “Mastercard Black Edition” yoki “Mastercard World Elite” kartasi bo'yicha ko'pi bilan bitta sovrin olishi mumkin.

### **IV. SOVRINLAR JAMG'ARMASI**

- 4.1. Bosh sovrin – g'oliblar uchun uchta sayyohlik safaridir. Har bir g'olib ikki kishilik (g'olib va unga hamroh shaxs) sayyohlik yo'llanmasini oladi; safarlarda ishtirok etuvchilarning umumiy soni – 6 (olti) nafar, har bir safar uchun 2 (ikki) nafardan ishtirokchi. Safarlarning o'tkazilish davrlari: Yaponiya – 2026-yil mart, Maldiv orollari – 2026-yil mart, Vengriya – 2026-yil may. Hamroh shaxslar ham bir vaqtning o'zida quyidagi barcha mezonlarga javob berishlari lozim:
- Aksiya o'tkazilayotgan paytda 18 (o'n sakkiz) yoshga to'lgan bo'lishi;
  - O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lishi;
  - O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq to'liq muomala layoqatiga ega bo'lishi.
- Qo'shimcha sovrinlar (Bosh sovrinlardan tashqari) – tashkilotchilar qaroriga muvofiq shakllantiriladi.
- 4.2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq, Ijrochi soliq agenti hisoblanadi hamda ushbu Aksiya doirasida jismoniy shaxs tomonidan sovrin ko'rinishida olingan daromaddan to'lanishi lozim bo'lgan jismoniy shaxslar daromad solig'i summasini hisoblab chiqarish, ushlab qolish va davlat byudjetiga o'tkazish majburiyatini oladi. Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda, to'lov manbaida soliqni ushlab qolish imkoni bo'lmagan taqdirda, soliqni to'lash majburiyati O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan tartibda g'olib tomonidan mustaqil ravishda bajariladi.
- 4.3. Aksiya doirasida olingan sovrin pul ekvivalentiga almashtirilmaydi, boshqa sovrinlarga ayirboshlanmaydi va uchinchi shaxslarga berilmaydi. G'olib sovrinni olishdan voz kechgan taqdirda, bunday sovrin talab qilinmagan deb hisoblanadi.
- 4.3.1. Talab qilinmagan sovrinlar yoki g'oliblar olishdan voz kechgan sovrinlardan Ijrochi o'z xohishiga ko'ra foydalanish huquqiga ega, jumladan, ularni boshqa Ishtirokchilar o'rtasida qayta o'ynashi mumkin.
- 4.4. Sovrinlarning tashqi ko'rinishi reklama materiallarida tasvirlangan ko'rinishdan farq qilishi mumkin. Bank g'oliblarning kutgan umidlari bilan sovrinlarning haqiqiy xususiyatlari o'rtasidagi har qanday nomuvofiqliklar uchun javobgar bo'lmaydi.

4.5. Bank va Ijrochiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra safar bekor qilingan yoki boshqa sanaga ko'chirilgan taqdirda, Ijrochi g'oliblarga boshqa sanalarda ekvivalent sayyohlik safarini yoki g'oliblar bilan kelishilgan holda teng qiymatli muqobil variantni taqdim etish majburiyatini oladi.

4.5.1. Bunday sayyohlik safarining va/yoki muqobil variantning teng qiymatliligi Ijrochi tomonidan bozor qiymati, xizmatlar klassi, davomiyligi va boshqa muhim xususiyatlar asosida mustaqil ravishda belgilanadi. Ushbu masala bo'yicha Bankning qarori yakuniy hisoblanadi va e'tiroz bildirish yoki qayta ko'rib chiqilmaydi.

## **V. AKSIYANI O'TKAZISH TARTIBI VA SOVRINLARNI O'YNASH JARAYONI**

5.1. Aksiya bo'yicha sovrinlar o'ynalishida ishtirok etuvchi shaxslar ro'yxati 2026-yil 16-yanvar soat 00:00 dan (Toshkent vaqti, UTC+5) sovrinlar o'ynalishi bevosita boshlanguniga qadar amalga oshirilgan malakaviy tranzaksiyalar haqidagi ma'lumotlar asosida shakllantiriladi.

5.2. Yutuq har bir G'olibga g'oliblar aniqlangan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida topshiriladi.

5.3. G'oliblarni aniqlash tartibi sertifikatlangan Randomus dasturiy ta'minoti yoki shunga o'xshash, g'oliblarni ro'yxatdan xolis va shaffof tarzda tanlashni ta'minlaydigan tasodifiy sonlar generatori yordamida amalga oshiriladi. Jarayon bo'yicha matnli va vizual materiallar Bankning rasmiy saytida, shuningdek Tashkilotchining Instagram va Facebook ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalarida ekran yozuvi (screen recording) formatida joylashtiriladi.

5.3.1. Sovrinlarni o'ynash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- har bir malakaviy tranzaksiyaga noyob identifikatsiya raqami biriktiriladi;
- tasodifiy sonlar generatori yordamida identifikatsiya raqamlarining umumiy ro'yxatidan 3 ta (uch) yutuqli raqam tanlanadi;
- yutuqli raqamlar bilan tranzaksiyalarni amalga oshirgan Ishtirokchilar g'olib deb e'tirof etiladi va sovrinni olish huquqiga ega bo'ladi;
- agar bitta Ishtirokchi bir nechta sovrinni yutib olsa, qo'shimcha sovrinlar qolgan Ishtirokchilar o'rtasida qayta o'ynaladi.

5.3.2. Bank Ishtirokchilar bilan yozma muzokaralar olib bormaydi, nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal etish yoki sovrinlarni topshirish holatlari bundan mustasno.

5.4. Aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi quyidagilarga so'zsiz roziligini bildiradi (qo'shimcha haq to'lanmagan holda):

- Bank tomonidan uning ismi, familiyasi, fotosuratlari, tasvirlari tushirilgan video materiallar hamda Aksiyada ishtiroki bilan bog'liq boshqa materiallardan foydalanilishiga;
- mazkur materiallarning reklama maqsadlarida Bankning rasmiy saytida, ijtimoiy tarmoqlarda va boshqa axborot kanallarida e'lon qilinishiga;
- qo'shimcha haq to'lanmasdan, uning ishtirokida intervyu o'tkazilishi hamda foto va video tasvirga olinishi.

5.5. Bank va Ijrochi sovrinlardan foydalanish natijasida g'oliblar yoki uchinchi shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga yetkazilgan har qanday zarar uchun javobgar bo'lmaydi.

5.6. Sovrinlarning sifati, ularning foydalanish xususiyatlari yoki kafolatli xizmat ko'rsatish bilan bog'liq barcha e'tirozlar tegishli sovrinlarning yetkazib beruvchisi, ishlab chiqaruvchisi yoki sotuvchisiga bevosita yo'naltirilishi lozim.

## **VI. SOVRINLARNI OLISH TARTIBI VA MUDDATLARI**

6.1. Bank har bir g'olibni yutuq qo'lga kiritilgan haqida telefon qo'ng'irog'i va/yoki SMS-xabar yuborish orqali, shuningdek (mavjud bo'lsa) elektron pochta orqali xabardor qiladi. Xabarnomalar "Mastercard Black Edition" yoki "Mastercard World Elite" kartalari rasmiylashtirilganda ko'rsatilgan mobil telefon raqamiga yuboriladi.

6.2. Sovrinni olish uchun g'olib kelishuv asosida "Kapitalbank" ATBning filiallaridan biriga taklif etiladi. G'olib quyidagi hujjatlarni o'zi bilan olib kelishi shart:

- shaxsni tasdiqlovchi hujjat;
- yutuqli tranzaksiya amalga oshirilgan "Mastercard Black Edition" yoki "Mastercard World Elite" kartasi;
- sovrinni rasmiylashtirish uchun zarur bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa hujjatlar.

6.3. Sovrin topshirilishi g'olib va Ijrochining vakolatli vakili o'rtasida qabul-topshirish dalolatnomasini imzolash orqali rasmiylashtiriladi. Dalolatnoma ikki nusxada tuziladi, har bir Taraf uchun bittadan.

6.4. Talab qilinmagan sovrinlar, shuningdek g'oliblar olishdan voz kechgan sovrinlar (ushbu Ofertaning 4.3-bandiga muvofiq) Ijrochi tomonidan o'z xohishiga ko'ra ishlatilishi mumkin, jumladan:

- Aksiya doirasida boshqa Ishtirokchilar o'rtasida qayta o'ynalishi;
- Aksiyaning keyingi bosqichlari sovrinlar jamg'armasiga kiritilishi;
- Bankning boshqa marketing tadbirlarida ishlatilishi.

6.5. Bank va Ijrochi sovrinlarni yetkazib bermaydi hamda sovrinlarni olish bilan bog'liq g'oliblarning xarajatlarini, jumladan transport xarajatlarini, qoplab bermaydi.

## VII. ISHTIROKCHILARNI XABARDOR QILISH

7.1. Aksiya bo'yicha potensial va amaldagi Ishtirokchilarni rasmiy xabardor qilish Bank tomonidan quyidagi aloqa kanallari orqali amalga oshiriladi:

- "Kapitalbank" ATBning rasmiy veb-sayti ([www.kapitalbank.uz](http://www.kapitalbank.uz));
- Bankning ijtimoiy tarmoqlar va kross-platforma messenjerlaridagi rasmiy sahifalari va guruhlari;
- Mastercard kartalari egalari uchun SMS-xabarlar, mobil ilovadagi push-bildirishnomalar va/yoki elektron pochta orqali yuboriladigan to'g'ridan-to'g'ri xabarnomalar.

7.2. Ushbu Ofertaning to'liq matni, shu jumladan barcha Ilovalar va o'zgartirishlar Bankning rasmiy veb-saytida [www.kapitalbank.uz](http://www.kapitalbank.uz) manzilidagi "Aksiyalar" bo'limida joylashtiriladi hamda barcha manfaatdor shaxslar uchun ochiq bo'lgan ommaviy hujjat hisoblanadi.

7.3. Aksiyada ishtirok etish shartlari, g'oliblarni aniqlash tartibi, sovrinlarni olish tartibi va boshqa masalalar bo'yicha qo'shimcha ma'lumot olish uchun Ishtirokchilar quyidagi usullardan foydalanishlari mumkin:

- Bankning yagona Kontakt-markaziga 1340 raqami orqali murojaat qilish;
- "Kapitalbank" ATBning istalgan filial yoki bo'limida maslahat olish;
- Bankning rasmiy veb-saytidagi qayta aloqa shakli orqali savol yuborish.

7.4. Bank Aksiyaning muddatidan oldin to'xtatish, o'tkazish muddatlarini uzaytirish yoki uning shartlariga muhim o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda, tegishli ma'lumotlar o'zgarishlar kuchga kirishidan yoki Aksiya to'xtatilishidan kamida 3 (uch) ish kuni oldin Bankning rasmiy veb-saytida "Aksiyalar" bo'limida e'lon qilinadi.

7.5. Bank belgilangan tartibda e'lon qilingan Aksiya haqidagi rasmiy axborot bilan Ishtirokchilarning tanishib chiqmaganligi, shuningdek uchinchi shaxslardan Aksiya bo'yicha ishonchsiz ma'lumotlar olingani uchun javobgar bo'lmaydi.

## VIII. MAXFIYLIK VA SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARNI HIMOYA QILISH

8.1. Aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi ushbu Ommaviy Ofertani to'liq o'qib chiqqanini va unga roziligini tasdiqlaydi, shuningdek o'z xohish-irodasi va o'z manfaatlari asosida Bankka hamda "FCBARTGROUP" MChJga (Ijrochiga), vakolatli shaxs sifatida, O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni va ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan hollarda va hajmda, Aksiya doirasida Bank o'z majburiyatlarini bajarishi maqsadida Ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan shaxsga doir ma'lumotlar va boshqa axborotni yig'ish, ishlov berish, uzatish (shu jumladan transchegaraviy), foydalanish va saqlashga rozilik beradi.

8.2. Bank va Ijrochi Ishtirokchilarning shaxsga doir ma'lumotlariga quyidagi maqsadlarda ishlov beradi:

- Ishtirokchining Aksiyada ishtirok etishini ta'minlash hamda ushbu Ofertada nazarda tutilgan huquq va majburiyatlarni amalga oshirish;
- Aksiya g'oliblarini aniqlash, natijalarni e'lon qilish va sovrinlarni topshirish;
- O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi talablariga rioya etish.

8.3. Bank o'z tasarrufida bo'lgan axborot va shaxsga doir ma'lumotlarning ruxsatsiz kirish, yo'qotish yoki noqonuniy foydalanish xavflaridan ishonchli va uzluksiz himoya qilinishini ta'minlaydi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun Bank "Kapitalbank" ATBning axborot xavfsizligi va shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish siyosatiga muvofiq (<https://www.kapitalbank.uz/ru/security/> manzilida joylashtirilgan), quyidagi vazifalarni belgilaydi:

- axborotning maxfiyligi, yaxlitligi va mavjudligini ta'minlash;
- shaxsga doir ma'lumotlarni ularga ishlov berishning barcha bosqichlarida himoya qilish;
- axborot va shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish sohasida qonunchilik, standartlar va shartnomaviy majburiyatlar talablariga, shu jumladan axborot xavfsizligi va ma'lumotlar maxfiyligini boshqarish bo'yicha xalqaro standartlar — ISO/IEC 27001:2022 va ISO/IEC 27701:2019 talablariga rioya etish.

8.4. Xabarnomalar va tarqatmalar. Aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi oldindan alohida ogohlantirilmasdan axborot va reklama tarqatmalarini olishga o'zining ixtiyoriy roziligini bildiradi (jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda: SMS-xabarnomalar, elektron pochta orqali tarqatmalar, push-xabarnomalar, messenjerlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali yuboriladigan xabarlar).

## IX. BANK REKVIZITLARI

### "Kapitalbank" ATB

Manzil: Toshkent sh., Saylgoh ko'ch., 7. STIR: 207127843 MFO: 01158

Tel.: +998 78 200-15-15 E-mail: [info@kapitalbank.uz](mailto:info@kapitalbank.uz)

O'zR MB 21.10.2017 yildagi69-son litsenziyasi